

## TALABALARNI INGLIZ TILIDA YOZISH KO'NIKMALARINI JADAL RIVOJLANTIRISH

*PhD, dotsent. Erkinov S.E.*  
**Muzaffarova Nafisa Mizrapovna**

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada talabalarni ingliz tilida yozishga o'rtatishni usullari haqida so'z yuritilgan . Unda yozish qoidalarida nimalarga e'tibor qaratish kerakligi haqida so'z boradi.*

**Kalit so'zlar:** *Yozuvni o'rgatish mazmuni va mexanizmi, yozuv texnikasini o'rgatish, yozuv bo'yicha yozma ishlar va ularni o'tkazish turlari,yozuvni o'rgatishda qo'llaniladigan mashqlar.yozma nutq, harf.*

### INGLIZ TILIDA YOZUVNI O'RGATISH

Zamonaviy ingliz tilini o'rgatish metodikasida "yozma nutq" "yozuv" tushunchalari farqlanadi. Yozma nutqning komponentiga o'qish va yozuv kiradi. Yozuv-yozma nutqning ajralmas komponentidir. Yozuv ham nutq faoliyati hisoblanadi. U orqali ma'lumot almashiladi. Ingliz tilini o'rgatishda yozuv muhim o'rin tutadi. U orqali o'ziga axborot, ma'lumot beriladi, yozuv orqali biz ma'lumotni ko'p vaqt hart o'srlargacha saqlab qolamiz, kelajak avlodga etkazamiz. Yozuv bo'lmasa shuncha limiy-tarixiy boyligimiz saqlanib qolinmasdi, biz ulardan bexabar qolar edik.

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, yozuv nutq faoliyatidir va uni o'rganishimiz kerak. Uproduktiv nutq faoliyati hisoblanib axborotni, ma'lumotni yozuv orqali kodlashdan iborat. Turli tipdagi o'quv yurtlari uchun chet tillari bo'yicha nashr qilingan deyarli barcha dasturlarda yozuv maqsad emas, ta'lim vositasi sifatida belgilangandi. Yozuv ta'limning hamma bosqichlarida yordamchi ahamiyatga ega bo'lib, u gapirish, tinglab tushunish va o'qish ko'nikmalarini rivojlantirish va takomillashtirish vositasi vazifasini bajaradi. V-IX sinflarda yozuv ta'limning maqsadi hisoblanadi. Yozuv o'qish vositasi sifatida qo'llanib, o'rta maktabda ta'limning turli bosqichlarida har-xil rol o'ynaydi. Masalan, ta'limning birinchi bosqichidagi asosiy vazifa yozuvni o'rgatishdan iborat, chunki bu davrda husnixat ko'nikmalari hamda tovush-harf topadi. Bu ko'nikmalar o'qish va yozuvning shakllanishi uchun zarur shart-sharoitdir.

O'qitishning ikkinchi bosqichida yozuv ustida olib boriladigan ish yangi til materialining to'planishi bilan bog'liq bo'lgan imlo ustidagi ishga kuchiriladi. Shu bilan birga yozma nutq og'zaki nutq ko'nikmalarini shakllanishiga imkon beruvchi vosita sifatida rivojlantiriladi.

Yozuv yana bir muhim rolni o'ymaydi u o'quvchilarning til ustida mustaqil olib boriladigan ish xususan o'qilgan matnlar yuzasidan annatasiyalar yozish va rejalar tuzishda yordamchi vositaga aylanadi. Yozuv boshqa nutq faoliyatlarini

shakllantirishda rivojlantirishda vositachilik qiladi. Yozuv orqali o'zganing fikrini yozib olamiz, o'qiganimizni yozsak, xotiramizda yaxshi saqlanadi.

Gapirish uchun ma'lumot to'playmiz, gapirish oson bo'ladi. Yozuvni o'rganish orqali o'qishni ham o'rganamiz. Yozuv qiyinchiliklari yozuv texnikasi, fikmi yozma bayon qilish bo'yicha bo'lishi mumkin. Ikkalasida ham ekstralingvistik va lingvistik qiyinchiliklar bo'ladi. Ekstralingvistik qiyinchilikla quyidagilar .

1. O'quvchi, talabalari yozishga tayyorgarligi
2. Yozuv o'tkazilayotgan vaziyami tayyorligi
3. Yozish uchun vositalarning mavjudligi (daftar, ruchka, kitob)
4. O'qituvchining tayyorligi
5. O'qituvchining yozishni, ayniqsa, yozma ishlami o'tkazish metodikasi
6. Mashq, yozma ishlarni o'quvchi, talabaning bilimiga mos holda allgang tuzilganligi.

### **LINGVISTIK QIYINCHILIKLAR**

1. Harflarni bosma yozmasini to'g'ri yozma bilishlik
2. Harf birikmalarini to'g'ri yoza bilishlik
3. Soz'larni xatosiz yozish, ularni ma'nosini bilish
4. So'zlar orqali grammatika nuqtai nazaridan gaplar tuza bilishlik

Yozuvni o'rgatish mazmuni va mexanizmi

Yozuvni o'rgatishni mazmuni bor. Yozuvning o'rgatishning mazmuni deganda yozuv bo'yicha nimalarni o'rgatish va ular bilan nima qilish tushuniladi. Yozuvni o'rgatganda harf, harf birikmalari orqali so'zlar tuzish, fikmi yozma bayon qilish o'rgatiladi.

Tilshunoslar harf, harf birikmalarini yozishni grafika deb, so'zlarni xatosiz, imlosini to'g'ri yozishni orfografiya, tinish belgilarni to'g'ri qo'yishni -punktulasiya, husnixami-kolliografiya deb ataydilar.

Yozuv mexanizmlari bor. Mexanizmlar deganda yozuv nimalar orqali amalga oshishi tushuniladi. Mashhur psixolog N.M.Jinkinging guvohlik berishicha, yozuv mexanizmi ikki bosqichdan; 1) harflardan so'z yasash 2) so'z va so'z birikmalaridan yozma axborotlar tuzishdan tashkil topadi. Ma'lumki, yozuv, mexanizmi birinchi bosqichi asosida malaka darajasiga etkazilishi kerak bo'lgan yozuv va imloni egallash, ikkinchi bosqich zaminida esa fikrlarni ma'lum yozuv kodi yordamida ifodalash, ya'ni nutq ko'nikmasini egallash yotadi. O'quvchi mana shu mexanizmlari yozuv mazmunini o'rtaga olsa, o'quvchilar, talabalar yozuvni amalda qo'llay oladilar. Yozuvni o'rgatishga doir ro'yxatga qayd etilgan atamalami metodika nuqtai nazaridan umumlashtirib tahlil qilamiz. Chet tilida yozuv deganda, ushbu til vositalari qo'llanib yozma shaklda fikr bayon etish tushuniladi. O'quvchilar ona tilidagi yozish ko'nikmasi chet tili o'rganishda halaqit berishi ham mumkin. Masalan bosma harf o'xshash, uning yozma shakli keskin farq qiladi yoki qisman o'xshash harflar, butunlay tafovut qiladigan harflar va h.k. Imloni ko'rsatish ushun o'qituvchi tilshunoslikdagi ma'lum mezonlarini bilishi zarur.

1. fonetik mezon; so'z yozilishi ifodalayotgan tovushga mos keladi. (ing.pen; isp.dama; nem.kurz; fr.trou) 2. morfologik mezon: fonetik holatiga qaramay so'zning ma'no ifodalovchi qismi (old qo'shimcha o'zak, suffiks) yozilishida o'zgarishsiz qoladi, (mas.nem. Hand so'zidan oxirgi harf [t] o'qilsa-da yozilishi o'zgarmaydi.)

3.an'anaviy (tarixiy) mezon fonetik va morfologik imlo qoidasiga bo'ysinmaydi, tarixan qabul qilingan tarzda yozilaveradi.

(ing.door, nem.vier; fr.aube) 4. Meroglif (ideografiya) mezon; aytishda bir xil (omonim) so'zlar yozilishda o'zgacha qiyofaga ega bo'ladi. (ing. Here-hear; nem.salte- seite; fr.tant-temps).

Yozuv murakkab psixofiziologik faoliyat bo'lib, unda nutq analizatorlarining hammasi ishtirok etadi. Yozuvda ma'no tovush timsoli va harfiy timsol o'zaro bog'lanadi.

### АДАБИЁТЛАР:

1. Тили ўрганилаётган мамлакатлар шақидаги географик, сиёсий-маданий расмлар ва мокатлар.

2. Ўрта мактабда чет тили ўқитишнинг умумий методикаси А.А.Миролюбов, И.В.Рационов, В.С.Цуллин тахрири М.Просвещение 1967. 199-248 б. остида.

3. Н.И.Гез, М.В.Ляковичская, А.А.Миролюбов. Методика обученияиностранном язўкам в средней школе.

4. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)